QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

FAZILOV DJAMOLIDDIN KAMOLITDINOVICH

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI TARBIYALASH TIZIMI

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 373.015.3:17

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Fazilov Djamoliddin Kamolitdinovich
Aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimi…….……...….3

Фазилов Джамолиддин Камолитдинович
Система воспитания духовно-нравственных качеств учащихся на основе аксиологического подхода……...….29

Fazilov Djamoliddin Kamolitdinovich
Sistem for developing pupils’ spiritual and moral qualities based on the axiological approach…….……58

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of publications.....61

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

FAZILOV DJAMOLIDDIN KAMOLITDINOVICH

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI TARBIYALASH TIZIMI

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertaiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.2.DSc/Ped214 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (https://tpmi.uz/) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Djurayev Risbay Xaydarovich** pedagogika fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Xusanova Sumbul Islamovna** pedagogika fanlari doktori, professor
	Shermuhammedova Jamila Toshpo‘latovna falsafa fanlari doktori, professor
	Ibragimov A’lamjon Amrilloyevich pedagogika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax Davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.02.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2026-yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100095, Toshkent shahri, Ziyo ko‘chasi, 6-uy). Tel.: (+99855) 511-02-69; faks: (+99855) 511-02-69; e-mail: tpmi@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Ziyo ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+99855) 511-02-69; faks: (+99855) 511-02-69.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Quronov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

B.M.Xakimova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
p.f.f.d. (PhD)

Sh.Q.Mardonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
p.f.d., professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aksiologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish, yosh avlodning qadriyatli munosabatlarini rivojlantirish hamda shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ko‘lami kengayib bormoqda. Aksiologik yondashuvda qadriyatlar inson dunyoqarashi, ma’naviy ehtiyojlari, ijtimoiy munosabatlari va xulq-atvorini yo‘naltiruvchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan ta’lim jarayoni faqat bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan cheklanmay, o‘quvchilarda inson qadr-qimmati, erkinlik, adolat, mas’uliyat, bag‘rikenglik, milliy o‘zlik va ijtimoiy hamjihatlik kabi qadriyatlarga ongli munosabatni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta’lim mazmuniga integratsiyalash, ularni o‘quvchining shaxsiy ehtiyoji va e’tiqodiga aylantirish, qadriyatli tanlov va mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirish masalalari aksiologik yondashuvning ustuvor ilmiy yo‘nalishlari sifatida tadqiq etilmoqda.

Dunyo miqyosida yoshlarning madaniy, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarini o‘rganish, fuqarolik ongi hamda ijtimoiy mas’uliyatini baholashga qaratilgan xalqaro tadqiqotlar olib borilmoqda. World Values Survey doirasida turli mamlakatlar aholisining qadriyatlari, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlaridagi o‘zgarishlar o‘rganilsa, International Civic and Citizenship Education Study tadqiqotlarida maktab o‘quvchilarining fuqarolik bilimi, ijtimoiy mas’uliyati, demokratik qadriyatlarga munosabati va jamiyat hayotidagi ishtiroki tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotlar ta’limda qadriyatlarni faqat nazariy tushuncha sifatida o‘rgatish etarli emasligini, ularni o‘quvchining shaxsiy pozitsiyasi va ijtimoiy faoliyatida namoyon bo‘ladigan sifatga aylantirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli qadriyatlarni anglashdan ularni ichki o‘zlashtirish va real hayotiy vaziyatlarda namoyon etishgacha bo‘lgan jarayonning samarali pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish xalqaro ta’lim tadqiqotlarining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida yoshlarni yuksak ma’naviyatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mustaqil fikrlaydigan hamda ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analarni tarbiya mazmuniga singdirish, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlari va faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik imkoniyatlar kengaymoqda. Shu bilan birga, tarbiyaviy faoliyatda qadriyatlarni o‘quvchiga nazariy tushuntirishdan ularni ichki e’tiqod va kundalik xulq-atvor mezoniga aylantirishga o‘tish, qadriyatlarning interiorizatsiyasini ta’minlovchi shakl, metod va vositalarni takomillashtirish zarurati mavjud. O‘quvchini qadriyatlarni biluvchi emas, balki ularni ongli tanlaydigan, hayotiy vaziyatlarda qo‘llaydigan va ijtimoiy faoliyatida namoyon etadigan subyekt sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik tizimni takomillashtirish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi[1], O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni O‘RQ-637[2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni[3], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[4], 2024-yil 21-iyundagi PQ-232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi 34-sonli “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga ushbu dissertasiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[5]. Jahon ilm-fanida I.Kant, M.Veber, G.Rikkert kabi faylasuflar aksiologiyani fan sifatida asoslab, qadriyatlarni inson faoliyatining oliy regulyatori sifatida belgilaganlar. J.Dyui (J.Dewey) pragmatik pedagogika nazariyasida tarbiyani ijtimoiy tajriba orqali amalga oshirish g‘oyasini ilgari surgan. L.Kolberg shaxsning axloqiy rivojlanish bosqichlari nazariyasini ishlab chiqqan. K.Rodjers esa, insonparvarlik psixologiyasi vakili sifatida tarbiyada “fasilitasiya” (yengillashtirish) g‘oyasini rivojlantirgan.

MDH davlatlari olimlari tomonidan pedagogik aksiologiyaning tadqiq etilishi. Sobiq ittifoq hududi va Rossiya pedagogikasida V.A.Slastyonin[6], N.E.Shchurkova[7], A.V.Kiryakova[8], Ye.V.Bondarevskaya[9] kabi olimlar pedagogik

[1] Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.

[2] Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-637-сонли “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. 2020 йил 23 сентябрь. – Т., 2020.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

[4] Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 26 мартдаги ПҚ-5040-сон “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.

[5] Мазкур қисм https://www.princeton.edu/academics/areas-of-study/humanities; https://aect.org/educational_media_and_technolo.php; https://www.mastersportal.com/studies/226751/gender-studies.html; https://www.bimm.edu.uz/ ва бошқа манбаларга асосланиб ёзилди.

[6] Сластёнин В.А., Чижакова Г.И. Введение в педагогическую аксиологию: Учебное пособие. – М.: Академия, 2003. – 192 с.

[7] Щуркова Н.Е. Педагогическая технология. – М.: Педагогическое общество России, 2009. – 256 с.

aksiologiyaga kirish nazariyasini yaratib, o‘qituvchi faoliyatida qadriyatlarning o‘rni, tarbiyani “qadriyatli munosabatlar tizimi”ga o‘tkazish texnologiyalari va qadriyatlarni o‘zlashtirishning bosqichli modellarini ishlab chiqqanlar.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda tarbiyaning umumiy nazariy, falsafiy va milliy-etnografik asoslari chuqur o‘rganilgan bo‘lsa-da, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy etilgan yangi “Tarbiya” fani va boshqa fanlar integratsiyasi asosida aksiologik yondashuvning yaxlit pedagogik tizimi ishlab chiqilmagan. Shuningdek, raqamli transformasiya va global axborot xurujlari sharoitida o‘smirlarda qadriyatlarni himoya qilish (“Aksiologik immunitet”) va “Raqamli fuqarolik” ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlari hamda innovatsion refleksiv texnologiyalar (axloqiy dilemmalar, fasilitatsiya) ning milliy maktab amaliyotiga moslashtirilgan modellari maxsus tadqiqot obyektiga aylanmagan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash va ularda barqaror qadriyatlar tizimini shakllantirish muammosi ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, turli davrlarda faylasuflar, pedagoglar va psixologlar tomonidan turli yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Mazkur muammoning o‘rganilganlik holatini quyidagi yo‘nalishlarda tizimlashtirish maqsadga muvofiq:

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma’naviy merosida tarbiya masalalari. O‘quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirishning fundamental asoslari Sharq uyg‘onish davri allomalarining asarlarida chuqur yoritilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida insonning baxtga erishishi uchun aqliy va axloqiy kamolotning uyg‘unligi zaruratini asoslagan. Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasida axloqiy namunaning roli va ustozning shaxsiy fazilatlariga e’tibor qaratgan. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida komil inson axloqi, halollik va vatanparvarlikni oliy qadriyatlar sifatida talqin qilgan bo‘lsa, Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilik” dostonida bilim va axloqning birligini davlat barqarorligining asosi sifatida ko‘rsatgan.

Qadriyatshunoslik tarixining eng teran jihatlarini faqat G‘arbdan emas, balki Sharqdan qidirish ham foydadan holi bo‘lmasa kerak. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, al-Buxoriy, at-Termiziy, Yassaviy, Ulug‘bek, Jomiy, Navoiy, Mashrab, Bedil, Maxtumquli, Abay, Bexbudiy, A.Avloniy kabi mutafakkir va olimlarning ijodida xam bu mavzuning izlari bor.

Ko‘zga ko‘ringan ta’lim-tarbiya sohasidagi olimlar R.X.Djurayev, X.I.Ibraimov, B.Adizov, O.Jamoldinova, I.Isayev, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, O.Musurmonova[10], S.Nishonova, D.Ro‘ziyeva, R.G‘.Safarova[11], B.Xodjayev, Sh.Sharipov, Ye.Shiyanov, N.Shodiyev, Sh.Shodmonova, N.Egamberdieva, M.Quronov[12] kabilarning ilmiy izlanishlarida milliy, umuminsoniy, ma’naviy-axloqiy, estetik, ta’limiy, tarbiyaviy qadriyatlarning mazmun-mohiti hamda

[8] Кирякова А.В. Теория ориентации личности в мире ценностей. – Оренбург, 1996.
[9] Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования. – Ростов-на-Дону, 2000.
[10] Мусурмонова О. Ўқувчиларнинг тарбияланганлик даражасини аниқлаш индикаторлари. – Т., 2021.

[11] Умумий ўрта таълим мазмунини модернизациялашнинг дидактик асослари. – Т.: Fan va texnologiya, 2018.
[12] Қуронов М. Ўзбекистон мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари. – Т.: Фан, 2008.

bo‘lajak o‘qituvchilarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish masalasining o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, A.Begmatov, M.Bekmuradov, B.Vilson, V.Kanke, J.Kim, M.Kaxxarova, Q.Nazarov, N.Rozov, I.Surina, J.Tulenov, E.Yusupovlar tomonidan bevosita shaxsda qadriyatlar tizimini rivojlantirishning falsafiy, sotsiologik asoslarini tadqiq etishgan bo‘lsa, Sh.Barotov, M.Davletshin, A.Jabborov, V.Karimova, L.Kuns, L.Mitina, N.Safayev, A.Seriy, E.G‘oziyev, A.Sharov, G‘.Shoumarov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari va adabiyotlarida qadriyatlar masalasining psixolog xususiyatlari, etnopsixologik jihatlari tadqiq etilganlari o‘rganildi.

Bundan tashqari, ko‘pgina xorijiy olimlardan J.S.Bruner[13], J.M.Halstead, J.Dewey[14], E.H.Erikson[15], M.J.Taylor[16] kabi etuk tadqiqot mualliflarining tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, mazkur tadqiqot ishlarining to‘la mazmuni bevosita o‘quvchilarrrning tarbiyaviy xususiyatlari, o‘zaro hamkorlikda tarbiyalash mexanizm masalalariga qaratilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining ilmiy tadqiqot ishlariga muvofiq IL-9524115133-raqamli “Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilarini milliy ruhda tarbiyalashning 7-yillik differensial texnologiyasi” mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimini konseptual-metodologik jihatdan asoslash va takomillashtirish, qadriyatlarni shaxsiy e’tiqod hamda barqaror axloqiy xulq-atvorga aylantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aksiologik yondashuv asosida ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimining ijtimoiy-pedagogik zaruriyati va nazariy-metodologik asoslarini aniqlashtirish;

tarbiya mazmunining 6 ta tayanch modul va spiralsimon rivojlanish tamoyiliga asoslangan integrativ tuzilmasini ishlab chiqish;

o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (aksiologik muhit, fasilitasiya, hamkorlik) va innovasion mexanizmlarini aniqlashtirish;

aksiologik tarbiya tizimining tarkibiy-funksional refleksiv modelini yaratish va uni amaliyotga joriy etish texnologiyalarini (interaktiv, loyihaviy, raqamli) takomillshtirish;

ishlab chiqilgan tizim samaradorligini pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish va natijalarni baholash mezonlarini takomillashtirish.

[13] Bruner, J.S. (1960). The process of education. Cambridge, MA: Harvard University Press.
[14] Dewey, J. (1938). Experience and education. New York: Macmillan.
[15] Erikson, E.H. (1968). Identity: Youth and Crisis. New York: W.W.Norton & Company.
[16] Halstead, J.M., Taylor, M.J. (Eds.). (2004). The development of values, attitudes and personal qualities: a review of recent research. Slough: NFER.

Tadqiqotning obyekti sifatida тadqiqot bo‘yicha olingan ilmiy natijalar, ishlab chiqilgan model va metodik tavsiyalar tajriba-sinov maydonlari sifatida belgilangan Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahri 3, 27 maktablar, Sirdaryo viloyati Guliston tumani 7, 9, 25 maktablar, Buxoro viloyati Buxoro shahri 8, 28 maktablarida o‘tkazildi. Bunda jami 720 nafar o‘quvchi jalb etilib, ular tajriba va nazorat sinflariga ajratildi. Shundan tajriba sinfi uchun 363 nafar, nazorat sinfi uchun esa, 357 nafar o‘quvchi tanlab olindi va maktablarining o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy etilgan.

Tadqiqotning predmetini aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimining mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot maqsadiga erishish va belgilangan vazifalarni samarali hal etish uchun nazariy va empirik usullarning yaxlit majmuasidan foydalanildi: muammoning nazariy-metodologik asoslarini yoritishda falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlar hamda me’yoriy-huquqiy hujjatlar qiyosiy va tizimli tahlil qilindi; tarbiya jarayonining komponentlari o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlash maqsadida modellashtirish usuli qo‘llanilib, aksiologik tarbiya tizimining refleksiv modeli ishlab chiqildi; amaliy holatni o‘rganish va tadqiqot gipotezasini tekshirish jarayonida pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma (anketa), suhbat, ekspert baholash, o‘quvchilarning ijtimoiy va ijodiy faoliyati natijalarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi; ishlab chiqilgan texnologiya samaradorligini aniqlash maqsadida uch bosqichli pedagogik tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi hamda olingan natijalarning ishonchliligi matematik-statistik tahlil metodlari yordamida asoslandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash mazmuni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘quv fanlari, “Kelajak soati” mashg‘ulotlari, sinfdan tashqari faoliyat hamda ijtimoiy-amaliy loyihalarning tarbiyaviy vazifalari bilan muvofiqlashtirish, ulardagi qadriyatga oid bilimlar va amaliy topshiriqlarning mazmuniy uzviyligini ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimi milliy tarbiya mazmunini ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) metodikalari bilan uyg‘unlashtirish hamda “Kelajak soati” mashg‘ulotlari va “milliytarbiya.uz” platformasi resurslaridan foydalanishni maktab, ota-ona va mahallaning o‘zaro muvofiqlashtirilgan tarbiyaviy faoliyati bilan bog‘lash asosida takomillashtirilgan;

aksiologik yondashuvning pedagogik imkoniyatlari milliy tarbiya an’analari, allomalar va jadidlarning ma’naviy-axloqiy qarashlarini o‘quvchilar yoshiga mos tarbiyaviy kontentga integratsiyalash hamda halollik, adolat va mas’uliyatni undagi axloqiy muammolarni tahlil qilish mezonlari sifatida qo‘llash asosida aniqlashtirilgan;

o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash mexanizmlari qadriyatli muloqot, axloqiy dilemma va badiiy-pedagogik tahlilni real hamda virtual muhitdagi axloqiy qarorlarni asoslashga, ijtimoiy loyiha va volontyorlikni qadriyatlarni amalda qo‘llashga, refleksiv portfolioni shaxsiy xulq-atvor tajribasini

baholashga yo‘naltirish hamda ushbu faoliyatlarni raqamli tarbiyaviy kontent bilan ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlari rivojlanganligini baholash metodikasi qadriyatlarni anglash, qadriyatlarga munosabat, axloqiy xulq-atvor va o‘z xulq-atvorini baholash mezonlarini qadriyatli-refleksiv (yuqori), vaziyatli-faol (o‘rta) hamda reproduktiv (quyi) darajalarning diagnostik ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish va dinamik monitoring natijalariga ko‘ra korreksion chora-tadbirlarni belgilash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari va sinf rahbarlari uchun “Aksiologik tarbiya texnologiyalari” nomli metodik qo‘llanma ishlab chiqildi;

“Tarbiya” fani va sinfdan tashqari ishlar mashg‘ulotlari uchun interfaol dars ishlanmalari, “Onlayn odob kodeksi” va o‘quvchining “Refleksiv kundaligi” namunalari yaratildi;

pedagoglarning aksiologik kompetentligini oshirishga qaratilgan “Pedagogik fasilitatsiya va qadriyatlar” moduli mazmuni shakllantirilib, malaka oshirish kurslariga tatbiq etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: quyidagilar bilan belgilanadi: tadqiqotning metodologik apparati aniqligi; qo‘llanilgan metodlarning maqsad va vazifalarga muvofiqligi; tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi (jami 720 nafar o‘quvchi. Shundan 363 nafar tajriba guruhi va 357 nafar nazorat guruhi o‘quvchilar qamrovi); nazorat va tajriba guruhlari natijalarining qiyosiy tahlili hamda olingan xulosalarning ijobiy dinamikaga ega ekanligi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashning nazariy asoslari, mazmuni, prinsiplari, o‘quvchilarning qadriyatlarni idrok etishi va uni ongli ravishda qabul qilishiga oid ilg‘or tajribalardan foydalanish usullarining taklif qilinganligi, qadriyatli yondashuv asosida o‘quvchilarni tarbiyalash jarayonlarini loyihlashga tayyorlash bosqichlari, omillari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarni tarbiyalash maqsadida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar, tadbirlar va boshqa jarayonlarni rejalashtirish va tayyorlashning metodik ta’minoti ishlab chiqilganligi, aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilar bilan olib boriladigan pedagogik jarayonlarni tayyorlash mexanizmlari takomillashtirilganligi, tadqiqot natijasida o‘quvchilarni qadriyatli yondashuv asosida tarbiyaviy jarayonlarni tayyorlashda xizmat qiladigan “Tarbiya” darslarini o‘tish jarayonida, darsdan tashqari o‘tkaziladigan “Kelajak soatlari” mashg‘ulotlari doirasida, ota-onalar uchun yaratilgan “Ota-ona murabbiy” metodik qo‘llanmasi, o‘quvchilar uchun yaratilgan “Mening ma’naviy hamrohim” nomli yordamchi uslubiy qo‘llanmalarda o‘z ifodasini topganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimini konseptual-metodologik jihatdan asoslash va takomillashtirishga doir natijalar asosida:

o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash mazmuni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘quv fanlari, “Kelajak soati” mashg‘ulotlari, sinfdan tashqari faoliyat hamda ijtimoiy-amaliy loyihalarning tarbiyaviy vazifalari bilan muvofiqlashtirish, ulardagi qadriyatga oid bilimlar va amaliy topshiriqlarning mazmuniy uzviyligini ta’minlash asosida takomillashtirishga oid mualliflik g‘oyalaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Madaniyat va ma’rifat” telekanalida efirga uzatilgan “Bugun” yangiliklar dasturi va “Agar” ko‘rsatuvini tayyorlashda integrativ foydalanilgan (O‘zbekiston Millliy Teleradiokompaniyasi “Ma’rifat” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2026-yil 14-sentyabrdagi 15-19/710-sonli ma’lumotnomasi). Natijada o‘quvchilarni qadriyatlarni anglashdan ularga shaxsiy munosabat bildirish va barqaror axloqiy xulq-atvorda namoyon etishgacha bo‘lgan jarayonning izchilligini ta’minlashga erishilgan;

o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimi milliy tarbiya mazmunini ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) metodikalari bilan uyg‘unlashtirish hamda “Kelajak soati” mashg‘ulotlari va “milliytarbiya.uz” platformasi resurslaridan foydalanishni maktab, ota-ona va mahallaning o‘zaro muvofiqlashtirilgan tarbiyaviy faoliyati bilan bog‘lash asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalari “Ota-ona - murabbiy” nomli ota-onalar uchun qo‘llanma mazmunida aks ettirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 18-maydagi 03-33-2557-sonli ma’lumotnomasi). Natijada “maktab – ota-ona – mahalla” hamkorligida o‘quvchilarning qadriyatli munosabat va barqaror axloqiy xulq-atvorini qo‘llab-quvvatlashga erishilgan;

aksiologik yondashuvning pedagogik imkoniyatlari milliy tarbiya an’analari, allomalar va jadidlarning ma’naviy-axloqiy qarashlarini o‘quvchilar yoshiga mos tarbiyaviy kontentga integratsiyalash hamda halollik, adolat va mas’uliyatni undagi axloqiy muammolarni tahlil qilish mezonlari sifatida qo‘llash asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalardan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida amalga oshirilayotgan “Kelajak soatlari”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 18-maydagi 03-33-2557-sonli ma’lumotnomasi). Natijada milliy tarbiya an’analari, buyuk allomalar va jadidlarning ma’naviy-axloqiy qarashlarini zamonaviy tarbiyaviy vaziyatlar mazmuniga integratsiya qilishga erishilgan;

o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash mexanizmlari qadriyatli muloqot, axloqiy dilemma va badiiy-pedagogik tahlilni real hamda virtual muhitdagi axloqiy qarorlarni asoslashga, ijtimoiy loyiha va volontyorlikni qadriyatlarni amalda qo‘llashga, refleksiv portfolioni shaxsiy xulq-atvor tajribasini baholashga yo‘naltirish hamda ushbu faoliyatlarni raqamli tarbiyaviy kontent bilan ta’minlash asosida takomillashtirishga oid mulliflik g‘oyalari umumiy o‘rta ta’lim maktablari 1-11-sinf o‘quvchilari uchun chop etilgan “Mening ma’naviy hamrohim” nomli o‘quv qo‘llanma mazmunida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 18-maydagi 03-33-2557-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarning real va virtual muhitdagi axloqiy vaziyatlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishilgan;

o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlari rivojlanganligini baholash metodikasi qadriyatlarni anglash, qadriyatlarga munosabat, axloqiy xulq-atvor va o‘z xulq-atvorini baholash mezonlarini qadriyatli-refleksiv (yuqori), vaziyatli-faol (o‘rta) hamda reproduktiv (quyi) darajalarning diagnostik ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish va dinamik monitoring natijalariga ko‘ra korreksion chora-tadbirlarni belgilash asosida takomillashtirishga oid takliflaridan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida amalga oshirilgan IL-9524115133-raqamli “Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilarini milliy ruhda tarbiyalashning 7-yillik differensial texnologiyasi” mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida integrativ foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2026-yil 14-maydagi 01-09/324-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlar rivojlanganligini baholash mezonlarining qadriyatli-refleksiv (yuqori), vaziyatli-faol (o‘rta) hamda reproduktiv (quyi) darajalariga mos ko‘rsatkichlarini aniqlashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 33 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, 1 та монография, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta uslubiy qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 26 ta maqola (19 ta respublika va 7 ta xorijiy jurnallarida) nashr etilgan. Bundan tashqari bir nechta xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda tezis maqolalar chop etilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining (№ DGU 15016) guvohnomasi olingan.

Dissertasiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 4 bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, uning asosiy matni 260 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish** qismida tadqiqot mavzusi dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Mavzuning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimi – ijtimoiy pedagogik zaruriyati, aksiologik qadriyatlar asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashning mahalliy va xorijiy tahlili: amaliy tajribalar, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashning psixologik xususiyatlari masalalari izohlab berilgan.

Aksiologik yondashuv ta’lim va tarbiya jarayonini inson hayotida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar tizimi orqali tashkil etishni nazarda tutadi: bunda tarbiyaning “nima uchun?” degan ma’no-mazmun savoli birinchi o‘ringa chiqadi, “qanday?” degan texnologiyaviy savol esa, shu ma’noning amaliy ifodasi sifatida shakllanadi. Ya’ni, aksiologik nuqtai nazarda tarbiya – qoidalar to‘plamini yodlatish emas, balki o‘quvchining qiymatli munosabatini (qadriyatga nisbatan anglangan, hissiy qabul qilingan va xulq-atvorda namoyon bo‘ladigan munosabat) barqarorlashtirish jarayonidir. Bu borada olimlarimiz R.X.Djurayev, X.I.Ibraimov, B.Adizov, O.Jamoldinova, I.Isayev, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, D.Ro‘ziyeva, V.Slastenin, B.Xodjayev, Sh.Sharipov, Ye.Shiyanov, N.Shodiyev, Sh.Shodmonova, N.Egamberdiyeva, M.Quronovning ta’kidlashicha, ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi o‘z mohiyatiga ko‘ra, faqat shaxsning ichki dunyosi bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, jamiyatning umumiy qiymatlar tizimi, ijtimoiy munosabatlar va madaniy an’analar bilan uzviy aloqador hisoblanadi. Shu sababli mazkur muammoni hal etishda qadriyatlar nazariyasiga asoslangan aksiologik yondashuv alohida ilmiy-metodologik ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika fanlarida aksiologik yondashuvning shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelib, u ta’lim jarayonida shaxsni faqat bilim oluvchi subyekt sifatida emas, balki muayyan qadriyatlarni anglovchi, qabul qiluvchi va amalga oshiruvchi ijtimoiy shaxs sifatida tarbiyalash g‘oyasiga tayanadi. Bu nuqtai nazardan qaralganda, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash faqat axloqiy qoidalarni o‘rgatish yoki tarbiyaviy suhbatlar o‘tkazish bilan cheklanmasdan, ularning ongida barqaror qiymatli munosabatlarni shakllantirishni talab qiladi. Chunki, axloqiy “bilim” (nima yaxshi-nima yomon) bilan axloqiy “pozitsiya” (nima uchun yaxshi, men uchun qaysi qadriyat ustuvor, vaziyatda qanday qaror qilaman) o‘rtasidagi farq katta: birinchi holatda o‘quvchi to‘g‘ri javobni aytishi mumkin, ikkinchi holatda esa, shu to‘g‘rilikni real hayotda tanlashga irodaviy va ma’naviy tayyor bo‘lishi kerak. Shu nuqtada aksiologik yondashuv tarbiyani “qoidalar”dan “qiymatlar”ga, “nazorat”dan “o‘zini boshqarish”ga, “buyurtma”dan “ichki qabul”ga burib yuboradi. Bugungi raqamli voqelik sharoitida bu sezgirlik oddiy axborot almashinuvi bilan cheklanmaydi: u shaxsning o‘zini anglashi, o‘z qadrini baholashi, “men kimman?” degan savolga javob izlashiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi “ideal obrazlar”, layk va sheyr kabi baholash mexanizmlari o‘smirlarda qiymatlarning tashqi tasdiqqa bog‘lanib qolishiga eksternalizatsiya sabab bo‘lishi mumkin; bu esa, ichki ma’naviy mezonlarning barqaror shakllanishiga to‘siq qo‘yadi.

Raqamli muhitning ta’siri faqat umumiy “media ta’sir” emas, balki statistik ko‘rsatkichlar bilan ham tasdiqlanadi. Masalan, 2024-yil yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda faol ijtimoiy tarmoq akkauntlari soni 8,70 mln deb baholangan; ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni 2023-yil boshidan 2024-yil boshigacha 4,5 mlnga (+107%) o‘sgani qayd etilgan. Bu raqamlar, albatta, “o‘smirlarcha foydalanish”ni to‘liq ifoda etmaydi (chunki, akkauntlar insonlar

soniga teng emas), lekin bir narsani ochiq ko‘rsatadi: umumiy o‘rta ta’lim tizimida tarbiyani “oflayn auditoriya” bilan chegaralab qo‘yish mumkin emas – qadriyatlar uchun asosiy maydonlardan biri raqamli makonga ko‘chib bormoqda. Shu bilan birga, o‘smirlar davri psixik barqarorlikning ham “sinov maydoni” hisoblanadi. Xalqaro tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar ruhiy salomatligi muammolari dunyo miqyosida ham katta ahamiyat kasb etmoqda: UNICEFning “The State of the World’s Children 2021” hisobotida o‘smirlar orasida ruhiy buzilishlar ulushi 13% dan ortiq ekani qayd etiladi; 15-19 yosh guruhida o‘z joniga qasd qilish o‘lim sabablari orasida 4-o‘rinda turadi, yiliga qariyb 46 ming nafar 10-19 yoshdagi bola hayotini o‘z qo‘li bilan tugatishi haqida baholar keltiriladi. Bu faktlar tarbiya masalasini “faqat odob-axloq” deb tor tushunish xatarli ekanini ko‘rsatadi: ma’naviy-axloqiy tarbiya psixologik barqarorlik, o‘zini anglash, stressga chidam, empatiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash madaniyati bilan chambarchas bog‘liq.

Demak, tarbiyaning aksiologik asoslari bugungi kunda ikki tomonlama vazifani bajaradi. Bir tomondan, jamiyat va davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan vatanparvarlik, mas’uliyat, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni yosh avlod ongida barqarorlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, raqamli va global chaqiriqlar sharoitida shaxsning ichki ma’naviy mezonlarini shakllantiradi. Bu o‘quvchining kundalik hayotda duch keladigan turli axborotlar, ijtimoiy bosim, provokatsiya va manipulyativ ta’sirlar sharoitida o‘z qadriyatlariga tayangan holda mustaqil axloqiy qaror qabul qilishini nazarda tutadi. Shu jihatdan aksiologik yondashuvning pedagogik imkoniyatlari milliy tarbiya an’analari, allomalar va jadidlarning ma’naviy-axloqiy qarashlarini o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tarbiyaviy mazmunga integratsiyalash, halollik, adolat va mas’uliyatni turli axloqiy muammolarni tahlil qilish mezonlari sifatida qo‘llash orqali kengayadi. Aksiologik yondashuvning falsafiy-pedagogik asoslari “qadriyat” tushunchasini ta’lim-tarbiya jarayonining mazmunini belgilovchi muhim kategoriya sifatida talqin qilish imkonini beradi. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim tizimida tarbiyaning qadriyatli-me’yoriy asoslari, so‘nggi yillardagi konseptual o‘zgarishlar hamda Indoneziya, Malayziya, AQSh va boshqa davlatlar ta’lim tajribasida qadriyatga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanish xususiyatlari bu boradagi pedagogik imkoniyatlarning kengligini ko‘rsatadi. Zamonaviy pedagogik aksiologiyada umuminsoniy qadriyatlar inson qadri, hayot, tinchlik, haqiqat va insoniylik bilan, milliy-madaniy qadriyatlar an’ana, urf-odat, milliy o‘zlik, til va ma’naviy meros bilan, shaxsiy qadriyatlar esa o‘quvchining individual hayotiy ma’nosi, kasbiy orzusi, shaxsiy mas’uliyati va “men” konsepsiyasi bilan bog‘liq holda qaraladi.

Aksiologik tarbiyaning pedagogik ahamiyati ushbu qadriyat qatlamlarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymasdan, ularning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashda namoyon bo‘ladi. Umuminsoniy qadriyatlarning milliy madaniyat, tarixiy tajriba, allomalar va jadidlar ma’naviy merosi orqali o‘quvchiga yaqinlashtirilishi ularning shaxsiy mazmun kasb etishiga imkon yaratadi. Shaxsiy qadriyatlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan ma’no dialogiga kirishi esa o‘quvchida halollik, adolat va mas’uliyat asosida axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish, o‘z munosabatini

asoslash hamda qadriyatga muvofiq xulq-atvorni tanlashga yo‘naltirilgan barqaror ma’naviy-axloqiy pozitsiyaning shakllanishiga xizmat qiladi.

1-jadval

O‘zbekistonda tarbiya tizimining me’yoriy-aksiologik asoslari (qisqacha qiyosiy tahlil)

Hujjat (yil)	Asosiy g‘oya	Tarbiyada ustuvor qadriyat/kompetensiyalar	Tizim mexanizmi
“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi“ (2019)	Tarbiyani uzluksiz, hayot bosqichlari va institutlar kesimida tashkil etish	Vatanga sadoqat, mas’uliyat, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, mehnatsevarlik va boshq.	Oila-ta’lim-jamoatchilik-OAV hamkorligi, indikator va monitoringni yo‘lga qo‘yish
PQ-5040 (2021)	Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish	Jamiyat qiymatlari va mafkuraviy barqarorlikni kuchaytirish	Davlat boshqaruvi va institutsional muvofiqlashtirish choralari
VM 558 (2022)	Maktablarda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi	Yoshlarning intellektual salohiyati, dunyoqarash, vatanparvarlik va boshq.	Yo‘nalishlar, vazifalar, ijro mexanizmlari va mas’ullar tizimi
VM-34 (2026)	Ta’lim tizimida tarbiya tizimini samaradorligini takomillashtirish	Yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash	Yoshlarga ongiga ilk yoshidan boshlab milliy qadriyatlar va vatanparvarlik g‘oyalarini singdirish

Psixologiya nuqtai nazaridan, qadriyatlar – motivatsiya, ehtiyoj va ideallar bilan bog‘liq “ichki regulyator”dir. Bojovich o‘smirlik davrida shaxsning motivatsion sohasi qayta qurilishini, ichki pozitsiya va hayotiy yo‘nalish shakllanishini ta’kidlaydi; bu jarayonda tashqi talablar (ota-ona, maktab, jamoa) ichki ma’naviy talabga aylanmas ekan, axloqiy qoidalar nomigagina qolib ketishi mumkin. Demak, tarbiyaning vazifasi – tashqi ijtimoiy talablarni o‘quvchining ichki maqsad va ma’nosiga aylantirish, ya’ni “men shunday qilishim kerak”dan “men shunday bo‘lishni tanlayman”ga olib o‘tish. Shu bilan birgalikda ushbu bobda O‘zbekistonda tarbiya masalasi davlat siyosati darajasida tizimli qaralayotgani huquqiy me’yoriy hujjatlar asosida ko‘rsatib berilgan.

2-jadval

Mahalliy va ilg‘or xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili

Tahlil yo‘nalishlari	Mahalliy tajriba (O‘zbekiston amaliyoti)	Ilg‘or xorijiy tajriba (Evropa, Yaponiya, AQSh)
Ta’lim mazmunidagi o‘rni	Alohida fan modeli: asosan “Tarbiya” fani, sinf soatlari va tadbirlar orqali amalga oshiriladi	Transversal (cross-curricular) model: qadriyatlar barcha fanlarga (matematika, sport, san’at) va maktab hayotiga singdirilgan
Amaliy faoliyat	Tadbirbozlik: bayramlar,	Service Learning (xizmat orqali

shakli	tanlovlar, uchrashuvlar (epizodik xarakterda)	o‘rganish): volontyorlik, ijtimoiy loyihalar, haqiqiy muammolarni echish (tizimli xarakterda)
Maktab muhiti (Hidden Curriculum)	Rasmiy talablar va norasmiy munosabatlar o‘rtasidagi farqlar kuzatilishi mumkin	“Yashirin o‘quv dasturi” (maktab madaniyati, tenglik, shaffoflik) tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi
Baholash mezonlari	Subyektiv yondashuv: “Yaxshi/Yomon” bahosi, xulq-atvor reytingi	Obyektiv indikatorlar: PISA Global Competence, SSES (ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar) diagnostikasi
Jamoaviylik va o‘zlik	Milliy mentalitetga xos jamoaviylik ustuvor (sinf sha’ni, mahalla fikri)	Individuallik va jamoaviy mas’uliyat uyg‘unligi (shaxsiy chegaralar va hamkorlik)
Ko‘zlangan kompetensiya	Milliy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik	Global fuqarolik, tanqidiy fikrlash, bag‘rikenglik (tolerantlik)

Bobdagi milliy va xorijiy tajribalar ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan, mavjud muammolar, ularni hal etishda taklif va mulohazalar bayon etilgan bo‘lib, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda mahalliy va ilg‘or xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

Yuqorida bayon etilgan materiallarni umumlashtirish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi: o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha ilmiy ishlarning nazariy tahlili shuni isbotlaydiki, axloqiy o‘zini anglash har bir yosh bosqichida o‘ziga xos xususiyatlarga va rivojlanish mexanizmlariga ega. Ushbu tadqiqot bolalik va o‘smirlik davrida axloqiy o‘zini anglashning psixologik xususiyatlari bo‘yicha ko‘tarilgan ko‘p qirrali muammoning barcha jihatlarini ochib bermaydi. Keyingi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va o‘smirlarning axloqiy o‘zini anglash tuzilmasini o‘rganishga qaratilishi lozim.

Bobning mazmunida yuqorida ta’kidlanganlardan tashqari, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tarbiya jarayonining ijtimoiy ahamiyati, o‘smirlik davrida shaxs dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi, axloqiy mezonlari va ijtimoiy faolligining shakllanish xususiyatlari pedagogik-psixologik jihatdan o‘rganilgan. O‘quvchilarning axborotni tanlab qabul qilish, baholash va unga munosabat bildirish qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, ommaviy madaniyat, tengdoshlar bosimi, ijtimoiy tarmoqlar va virtual muhit ta’sirida mustaqil axloqiy pozitsiyani saqlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu asosda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘quv fanlari, “Kelajak soati” mashg‘ulotlari, sinfdan tashqari faoliyat va ijtimoiy-amaliy loyihalarning tarbiyaviy vazifalari bilan muvofiqlashtirish, qadriyatga oid bilimlarni amaliy topshiriqlar bilan uzviy bog‘lash imkoniyatlari yoritilgan. Milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy o‘rganish asosida milliy tarbiya mazmunini ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) metodikalari bilan uyg‘unlashtirish, “Kelajak soati” mashg‘ulotlari va “milliytarbiya.uz” platformasi resurslaridan foydalanish hamda ushbu jarayonni maktab, ota-ona va mahallaning o‘zaro muvofiqlashtirilgan tarbiyaviy faoliyati bilan bog‘lash yo‘nalishlari asoslangan. Mavjud pedagogik muammolar tahlil qilinib, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini qadriyatlarni anglashdan ularni real

va virtual muhitdagi xulq-atvorda namoyon etishgacha bo‘lgan yaxlit jarayonda tarbiyalashga doir taklif va mulohazalar bayon etilgan.

Disseratatsiyaning ikkinchi bobi **“Ta’lim muassasalarida aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimini takomillashtirish”** deb nomlangan bo‘lib, unda aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimining mazmuni, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish mazmuni, texnologiyasi va darsdan tashqari ishlar metodikasi ilmiy-pedagogik jihatdan ishlab chiqildi, aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimining pedagogik shart-sharoitlari, aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash, ularning dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimni tashkil etishning mexanizmlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Ta’lim muassasalarida aksiologik yondashuvni amalga oshirish, avvalo, qadriyatga yo‘naltirilgan tarbiyaviy muhitni tashkil etishni talab qiladi. O‘quvchi ma’naviy-axloqiy sifatlarni faqat nazariy bilimlar orqali emas, balki o‘qituvchi shaxsi, jamoaviy munosabatlar, ijtimoiy tajriba va amaliy faoliyat jarayonida egallaydi. O‘qituvchining odobi, muomala madaniyati, adolatliligi va mas’uliyati o‘quvchi uchun xulq-atvor namunasi vazifasini bajaradi. Shu sababli qadriyatlarni anglash, ularga shaxsiy munosabat bildirish va kundalik faoliyatda namoyon etish o‘zaro bog‘liq tarbiyaviy jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash mazmuni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘quv fanlari, “Kelajak soati” mashg‘ulotlari, sinfdan tashqari faoliyat hamda ijtimoiy-amaliy loyihalarning tarbiyaviy vazifalari bilan muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Adabiyot, tarix, ona tili, tarbiya, biologiya kabi fanlarda buyuk allomalar va jadidlarning ma’naviy merosi, xalq og‘zaki ijodi, milliy urf-odat va an’analar, hayotiy vaziyatlardan foydalanish qadriyatga oid bilimlarni amaliy mazmun bilan bog‘lash imkonini beradi. Bunda halollik, adolat va mas’uliyat o‘quvchilarning axloqiy muammolarni tahlil qilishi va o‘z qarorini asoslashida tayanch mezonlar sifatida qo‘llanadi.

Sinfdan tashqari faoliyatda qadriyatli muloqot, axloqiy dilemma, badiiy-pedagogik tahlil, ijtimoiy loyihalar va volontyorlik faoliyatidan foydalanish o‘quvchining qadriyatlarni amalda namoyon etish tajribasini kengaytiradi. Davra suhbatlari, kitobxonlik tadbirlari, xayriya va ekologik aksiyalar, teatr sahnalashtirishlari hamda jamoaviy loyihalarda o‘quvchilar hamkorlik, mas’uliyat, insonparvarlik va o‘zaro yordam ko‘rsatish tajribasini egallaydilar. Refleksiv portfolio orqali esa o‘quvchining o‘z xatti-harakati, qabul qilgan qarori va qadriyatlarga munosabatini muntazam baholab borish imkoniyati yaratiladi. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotidagi o‘rni kuchayib borayotgan sharoitda aksiologik tarbiya real muhit bilan bir qatorda virtual muhitni ham qamrab olishi zarur. “milliytarbiya.uz” platformasidagi raqamli tarbiyaviy kontentdan foydalanish, real va virtual muhitdagi axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish, axborotni qadriyatlar nuqtai nazaridan baholash

o‘quvchilarning mustaqil va mas’uliyatli qaror qabul qilishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda media madaniyat va tanqidiy fikrlash ma’naviy-axloqiy sifatlarni zamonaviy axborot muhitida namoyon etish vositasi sifatida qaraladi.

Oila, mahalla va ta’lim muassasasining o‘zaro muvofiqlashtirilgan faoliyati aksiologik tarbiyaning uzluksizligini ta’minlaydi. Milliy tarbiya mazmunini ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) metodikalari bilan uyg‘unlashtirish, “Kelajak soati” mashg‘ulotlari va raqamli tarbiyaviy resurslardan foydalanishni maktab, ota-ona va mahalla hamkorligi bilan bog‘lash o‘quvchining maktabda egallagan qadriyatli tajribasini oilaviy va ijtimoiy muhitda mustahkamlash imkonini beradi.

Axloqiy tarbiya ta’lim bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bilim olish jarayonida o‘quvchining nafaqat intellektual salohiyati, balki ma’naviy-axloqiy sifatlari ham rivojlanadi. Ajdodlarimiz ilm-ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotining muhim qadriyati sifatida e’tirof etganlar. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda qadriyatga oid bilim, unga shaxsiy munosabat va amaliy xulq-atvorning o‘zaro uzviyligini ta’minlash muhimdir. Quyidagi jadvalda tarbiya mazmuni “qadriyat – sifat – ko‘rsatkich” o‘zaro bog‘liqligi asosida tizimlashtirilgan.

3-jadval

“Qadriyat → ma’naviy-axloqiy sifat → kuzatiladigan ko‘rsatkich” xaritasi (2020–2025-yillar)

Qadriyatlar domeni	Ma’naviy-axloqiy sifatlar	Kuzatiladigan ko‘rsatkichlar (maktab amaliyotida)
Inson qadri va insonparvarlik	hamdardlik, mehribonlik, rahmdillik	tengdoshiga yordam ko‘rsatadi; bulling holatlariga nisbatan salbiy pozitsiya bildiradi; ijtimoiy ko‘mak va volontyorlik faoliyatida ishtirok etadi
Vatan va fuqarolik	sadoqat, ijtimoiy mas’uliyat, qonunga hurmat, faol fuqarolik	davlat ramzlariga ehtirom ko‘rsatadi; jamoat ishlarida faol qatnashadi; belgilangan qoidalarga ongli ravishda rioya qiladi; jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglaydi
Oila va milliy an’analar	hurmat, minnatdorlik, mas’uliyat, sadoqat	kattalar bilan muomala odobiga amal qiladi; ota-ona va oila a’zolariga hurmat ko‘rsatadi; oilaviy burch va mas’uliyatni anglaydi; milliy an’analarga qadriyatli munosabat bildiradi
Halollik, adolat va mas’uliyat	vijdonlilik, rostgo‘ylik, insof, mas’uliyatlilik	akademik halollikka rioya qiladi; o‘z xatosini tan oladi va tuzatishga harakat qiladi; axloqiy muammoli vaziyatlarda halollik va adolat mezonlariga tayangan holda qarorini asoslaydi; o‘z xatti-harakatining oqibatlari uchun javobgarlikni qabul qiladi
Mehnat va kasbga hurmat	mehnatsevarlik, matonat, intizom, mas’uliyat	topshiriqni oxiriga etkazadi; vaqt va faoliyatini boshqaradi; jamoaviy mehnatda o‘z vazifasini bajaradi; mehnat natijasiga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘ladi
Bag‘rikenglik va madaniy muloqot	tolerantlik, o‘zaro hurmat, muloqot madaniyati	o‘zgacha fikrni tinglaydi va hurmat qiladi; stereotip va kamsituvchi munosabatlarga dalil bilan javob beradi; nizoli vaziyatlarni muloqot orqali tinch hal

		etishga intiladi
Raqamli axloq va axborot mas’uliyati	mediaodob, tanqidiy fikrlash, mas’uliyatli onlayn xulq-atvor	ishonchli va soxta axborotni farqlashga intiladi; kiberetiket qoidalariga amal qiladi; kiberbullingni rad etadi; shaxsiy va boshqalarga tegishli ma’lumotlar maxfiyligini saqlaydi; virtual muhitdagi xatti-harakatini axloqiy jihatdan baholaydi

So‘nggi besh yilda (2020-2025) O‘zbekiston ta’lim siyosatida “tarbiya” masalasi oddiy qo‘shimcha yo‘nalish emas, ta’lim natijalarining o‘zagi sifatida qayta talqin etildi. Bu, avvalo, huquqiy-normativ maydondagi yangilanishlar bilan bog‘liq: “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri (2020) ta’lim jarayonining mazmunini faqat bilim uzatish bilan cheklamay, shaxsni intellektual, ijtimoiy hamda ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish vazifasini tizimli maqsadga aylantirdi. Ikkinchidan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qarori bilan “Tarbiya” fani bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari va fan konsepsiyasi belgilandi. Bu hujjatning mazmuniy mohiyati – tarbiyani “alohida tadbirlar yig‘indisi”dan chiqarib, me’yoriy ta’lim mazmuni sifatida standartlashtirishdan iboratligini ko‘rsatdi. Uchinchidan, ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha Prezident qarori (2021) tarbiyaning ijtimoiy institutlar (maktab-oila-mahalla-jamoatchilik) kesimida muvofiqlashuvini kuchaytirdi.

O‘zbekistonda “Tarbiya” fanining konseptual asoslariga oid ishlar aynan shu g‘oyani ilgari surdi, tarbiya mazmuni kompetensiyaviy talablar bilan uyg‘unlashgan holda, hayotiy amaliy odatlar va qadriyatli qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirishi kerakligi anglandi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’limda tarbiya ishlari va “Tarbiya” fanini joriy etish, hamda tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha qabul qilingan hujjatlar pedagogik shart-sharoitlarni davlat siyosati darajasida belgilab bermoqda. Xorijiy tendensiyalar ham ta’limning kelajak modellarida “qadriyat va munosabatlar”ni (attitudes & values) shaxs farovonligi va jamiyat barqarorligiga etaklovchi asosiy “yadro” deb qaraydi. YuNESKOning 2021-yilgi “yangi ijtimoiy kelishuv” g‘oyasida esa, ta’limning insonparvar maqsadini tiklash, qadriyatli hamjihatlikni kuchaytirish asosiy chaqiriq sifatida belgilanadi. O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki jamiyat taraqqiyoti, inson kamoloti va kelajak avlodning barkamol bo‘lib etishishi aynan ma’naviy-axloqiy tarbiyaga bog‘liqdir. Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida o‘quvchilarda insoniylik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, halollik, mas’uliyat, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlar shakllantiriladi. Bu esa ularning nafaqat bilimli, balki yuksak madaniyatli va jamiyat uchun foydali shaxs bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi. O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda oila, maktab va jamoatchilikning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bosqichlarida bolaning dunyoqarashi, xulq-atvori va qadriyatlarga munosabati shakllanadi. Shu bois o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy tarbiyachi vazifasini ham

bajaradi. Dars jarayonlarida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, ajdodlar merosi, odob-axloq qoidalarini singdirish orqali o‘quvchilarning ma’naviy dunyosi boyitiladi.



1-rasm. Aksiologik yondashuv asosidagi tarbiya vositalari

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning samarali shakllaridan biri – tarbiyaviy tadbirlar, suhbatlar, kitobxonlik kechalari, ijtimoiy loyihalar va jamoaviy ishlar hisoblanadi. Bunday faoliyatlar orqali o‘quvchilarda o‘zaro hurmat, hamjihatlik, do‘stona munosabat va ijtimoiy mas’uliyat hissi rivojlanadi. Shuningdek, badiiy adabiyotlar, milliy qahramonlar hayoti, buyuk mutafakkirlar merosi ham ma’naviy tarbiyaning muhim manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur bobda aksiologik pedagogik tizimning asosiy mexanizmlari ishlab chiqildi.

4-jadval

Aksiologik pedagogik tizimning asosiy mexanizmlari va vositalari

Mexanizm	Asosiy vositalar va texnologiyalar	Maqsad va kutilayotgan natija
Gnoseologik-aksiologik	Fan asoslarini o‘qitish, matn tahlili, tarixiy manbalar (Hadislar)	Ilmiy va diniy bilimlarni e’tiqodga aylantirish, milliy iftixorni shakllantirish
Emotsional-motivatsion	“Ma’naviy aks ettirish”, san’at pedagogikasi, ertak terapiyasi	Ijobiy hissiy fon yaratish, empatiyani rivojlantirish, estetik didni o‘stirish
Interfaol-kommunikativ	debatlar, rolli o‘yinlar, suhbat, munozara	Muloqot madaniyatini, bag‘rikenglikni va jamoada ishlash ko‘nikmasini shakllantirish
Innovatsion-kreativ	kreativ texnologiyalar, loyihalar metodi, portfolio	Ijodiy qobiliyatlarni ochish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, yangilikka intilish
Ijtimoiy-amaliy	kasbga yo‘naltirish, ijtimoiy foydali mehnat, “O‘rganishga o‘rgatish”	Mehnatsevarlik, mas’uliyat, jamiyatga moslashish va barqaror hayotiy pozitsiya

Aksiologik yondashuv asosidagi pedagogik tizim shunchaki axloqiy me’yorlarni o‘rgatish emas, balki ularni shaxsning ichki e’tiqodiga aylantirish mexanizmidir. Tadqiqot davomida ushbu tizimni tashkil etishning quyidagi asosiy mexanizmlari belgilandi:

Interiorizatsiya mexanizmi: tashqi ijtimoiy qadriyatlarning (masalan, halollik, mas’uliyat) o‘quvchining ichki psixologik tuzilishiga o‘tishi.

Qadriyatli identifikatsiya: o‘quvchining o‘zini ma’lum bir ma’naviy ideal yoki shaxs bilan qiyoslashi va unga ergashishi.

Axloqiy refleksiya: o‘quvchining o‘z xatti-harakatlarini ma’naviy mezonlar asosida tahlil qilishi va o‘z-o‘zini baholashi.

Dissertasiyaning uchinchi bobi **“Aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashning zamonaviy tendensiyalari”** deb nomlanib, unda aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimiga qo‘llaniladigan texnologiyalarni tanlash prinsiplari, aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimidan foydalanish bosqichlari, refleksiv modeli, aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimida qo‘llaniladigan ta’lim shakli, metod va vositalari o‘z aksini topgan. Shuni ta’kidlash joizki, etakchi xorijiy olimlarning aksariyat tadqiqotlari yo metodologik darajada bajarilgan yoki nazariy darajaga chiqish bilan cheklangan. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning texnologik darajasi (amaliy mexanizmi) taqdim etilgan tadqiqotlar esa, ancha kam uchraydi.

O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashning zamonaviy tendensiyalari globallashuv, raqamlashtirish va innovatsion ta’lim muhitining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda takomillashib bormoqda. Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchiga bilim berish bilan bir qatorda, uni ma’nan etuk, axloqan barqaror, mustaqil qaror qabul qila oladigan va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash muhim pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaviy yondashuv ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunini o‘quvchining real hayotiy faoliyati bilan bog‘lash imkonini beradi. Bunda qadriyatlarni bilishning o‘zi etarli bo‘lmay, axloqiy vaziyatni tahlil qilish, halollik, adolat va mas’uliyat mezonlariga tayangan holda qaror qabul qilish, o‘z xatti-harakatining oqibatlarini anglash va ijtimoiy munosabatlarda qadriyatlarga muvofiq harakat qilishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyani raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash ham zamonaviy pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. Elektron ta’lim platformalari, multimediali vositalar, virtual muhit va raqamli tarbiyaviy kontent o‘quvchilarning qadriyatli munosabatlarini real va virtual makonda rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu jihatdan “milliytarbiya.uz” platformasi resurslarini “Kelajak soati” mashg‘ulotlari va boshqa tarbiyaviy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarga virtual muhitdagi axloqiy vaziyatlarni tahlil qildirish, axborotga tanqidiy munosabat bildirish va onlayn xulq-atvorning ma’naviy oqibatlarini baholatish alohida ahamiyatga ega. Media

savodxonlik, axborot madaniyati va raqamli axloq shu tariqa ma’naviy-axloqiy tarbiyaning amaliy tarkibiy qismlaridan biriga aylanadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi ham ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ustuvor tendensiyalaridan biridir. Milliy tarbiya an’analari, allomalar va jadidlarning ma’naviy-axloqiy qarashlarini o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tarbiyaviy kontentga integratsiyalash orqali tarixiy-ma’naviy merosni zamonaviy hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash imkoniyati yuzaga keladi. Milliy qadriyatlarga hurmatni insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolat, halollik, mas’uliyat va fuqarolik faolligi kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchining turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘z axloqiy pozitsiyasini belgilashi uchun qadriyatli asos yaratadi.


Shaxsga yo‘naltirilgan va ijtimoiy-emotsional ta’lim tamoyillaridan foydalanish ham tarbiyaviy jarayonning mazmunini boyitmoqda. Milliy tarbiya mazmunini ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) metodikalari bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarda o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqalarning holatini tushunish, hamkorlik qilish, mas’uliyatli qaror qabul qilish hamda nizoli vaziyatlarda maqbul xulq-atvorni tanlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday faoliyat maktab doirasidagina cheklanmay, ota-ona va mahalla bilan muvofiqlashtirilgan holda tashkil etilishi o‘quvchining turli ijtimoiy muhitlarda bir xil qadriyatli pozitsiyani namoyon etishiga sharoit yaratadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyada interfaol va faoliyatga yo‘naltirilgan metodlarning qo‘llanish doirasi ham kengaymoqda. Qadriyatli muloqot, axloqiy dilemma, keys-stadi va badiiy-pedagogik tahlil o‘quvchini tayyor axloqiy xulosani qabul qilishdan ko‘ra, muammoli vaziyatni mustaqil tahlil qilish va o‘z qarorini asoslashga yo‘naltiradi. Ijtimoiy loyihalar va volontyorlik faoliyati qadriyatlarni real ijtimoiy munosabatlarda amalda qo‘llash imkonini bersa, refleksiv portfolio o‘quvchining o‘z xulq-atvori, qarorlari va shaxsiy tajribasini muntazam tahlil qilib borishga xizmat qiladi. Shu asosda ma’naviy-axloqiy tarbiya qadriyat haqida bilim berishdan qadriyatni anglash, unga shaxsiy munosabat bildirish, axloqiy qarorni asoslash, uni amaliy faoliyatda namoyon etish va o‘z xulq-atvorini refleksiv baholashga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik jarayon sifatida tashkil etiladi.

Hozirgi vaqtda ma’naviy-axloqiy tarbiya nazariyasida quyidagi qoidalar umume’tirof etilgan hisoblanadi: 1) Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning qadriyatli-ma’noli (aksiologik) tabiati haqidagi qoida. 2) Qadriyatlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyada maqsadli mo‘ljallar (orientirlar) ekanligi. 3) Qadriyatlar va qadriyatli munosabatlarga yo‘naltirilganlik tamoyili – ma’naviy-axloqiy tarbiya sohasida pedagog faoliyatini tartibga soluvchi etakchi tamoyil sifatida.

Texnologiyalarni tanlashda o‘qituvchi ushbu “besh ustun”ning qaysi birini mustahkamlashni maqsad qilganini aniq belgilab olishi shart.

Bizning tadqiqotimizda aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimining refleksiv modeli quyidagi bloklarni o‘z ichiga oladi: maqsadli, tashkiliy-metodik, funksional hamda baholash-refleksiv bloklar (3-rasm).



3-rasm. Aksiologik yondashuv asosida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimidan foydalanish jarayonining tarkibiy-funksional refleksiv modeli

Ushbu model mazkur jarayonning ijtimoiy-pedagogik resurslarini optimallashtirishning nazariy umumlashmasi sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik aksiologiya tarbiya jarayonida shakllantirilishi lozim bo‘lgan qadriyatlarni aniq guruhlarga ajratadi. Bular barqaror (absolyut) qadriyatlar, vaqt bilan bog‘liq (ijtimoiy-dinamik) qadriyatlar va mental-etnik qadriyatlar, individual-shaxsiy qadriyatlar.

Alohida ta’kidlash joizki, Sharq falsafasida (xususan, konfutsiylik va islomiy axloq sintezida) ma’naviy-axloqiy kamolotning beshta (insonparvarlik, burch, hurmat, an’anaviylik va aqllilik) asosiy sifatiga urg‘u berilib, ushbu sifatlar zamonaviy o‘zbek pedagogikasida ham tarbiya mazmunining o‘zagi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ushbu qoidalarning barchasi ma’naviy-axloqiy tarbiya texnologiyalarini tanlash, ishlab chiqish va amalga oshirish nuqtai nazaridan g‘oyat muhimdir.

Birinchi qoida ma’naviy-axloqiy tarbiya texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatini belgilaydi:

Ikkinchi qoida ma’naviy-axloqiy tarbiya texnologiyasining vazifalarida o‘z aksini topishi kerak.

Uchinchi qoida – qadriyatlar va qadriyatli munosabatlarga yo‘naltirilganlik tamoyiliga tegishlidir.

Dissertatsiyada o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning ilmiy ta’minotidagi keyingi muhim komponent madaniy-tarixiy (kulturologik) yondashuv masalasida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Bunda madaniy-tarixiy yondashuv insonning madaniyat bilan qadriyatlar tizimi sifatidagi obyektiv bog‘liqligi bilan izohlanib, o‘quvchi o‘zida madaniyatning bir qismini mujassamlashtiradi. U nafaqat o‘zi o‘zlashtirgan madaniyat (uning bir qismi ma’naviy-axloqiy qadriyatlardir) asosida rivojlanadi, balki unga qandaydir prinsipial yangilik kiritadi, ya’ni madaniyatning yangi elementlari ijodkoriga aylanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tadqiqotda o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga tayyorlashning quyidagi tamoyillari belgilandi: tizimlilik, rivojlanish, boshqaruvchanlik, maqbullik (optimallik), pedagogik jarayonni individuallashtirish.

Barchaga ma’lumki, qadriyatlar shakllanadigan ijtimoiy sohalardan biri bu ta’limdir. Ta’lim tizimi qadriyatlarni bir avloddan ikkinchi avlodga o‘tkazishni ta’minlaydi, shaxsning qadriyatlar nuqtai nazaridan shakllanishiga yordam beradi.

“Tarbiya” fanida aksiologik metodlar ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilib o‘tishga yordam beradi. Bu metodlar talabalar orasida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda, mustaqil fikrlashni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi.

Aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimida qo‘llaniladigan ta’lim shakli sifatida formal shakllar (dars doirasida), noformal shakllar (sinfdan/maktabdan tashqari) va informal shakllar (oila-jamoa-onlayn muhit), o‘rganish metod va vositalari quyidagi jalvalda keltirilgan.

5-jadval

Qadriyat-metod-vosita-indikator mosligi

Qadriyat/sifat	Samarali metodlar	Asosiy vositalar	Indikator (ko‘rinadigan belgi)
Halollik (vijdon)	dilemma-keys, debat, refleksiya	dilemma kartasi, portfolio	plagiatdan tiyilish; xatosini tan olish
Hurmat (odob)	dialog, rolli o‘yin, restorativ doira	qoidalar/kelishuv, kuzatuv varaqasi	muloqotda haqorat kamayishi; tinglash madaniyati
Mas’uliyat	loyiha, service learning	loyiha xaritasi, rol taqsimoti	vazifani o‘z vaqtida tugatish; jamoaviy hissa
Bag‘rikenglik/murosa	forum-teatr, mediatsiya, debat	situatsiya ssenariysi	konfliktda kelishuv izlashi
Raqamli odob	keys, media savodxonlik treningi	faktchek algoritmi	feykni ajratish; onlaynda odob

Dissertasiya ishining **“Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi”** to‘rtinchi bo‘limida tadqiqot doirasida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish maqsadi, vazifalari va usullari hamda o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari va tahlili bayon etilgan.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi – shaxsga yo‘naltirilgan-faoliyatli, qadriyatli-gumanistik va madaniy-tarixiy yondashuvlar asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga tayyorgarlik sifatini oshirish modelini amalga oshirish bo‘yicha gipoteza qoidalarini tekshirishdan iborat bo‘ldi. Bu pedagoglar va o‘quvchilar faoliyatini bosqichma-bosqich, sifat jihatidan o‘zgartirish choralarini amalga oshirishni nazarda tutdi va o‘zaro bog‘liq bosqichlarni o‘z ichiga oldi: tashkiliy (2021-2022); operatsional-faoliyatli (2022-2023); refleksiv-natijaviy (2023-2024). Har bir bosqichda o‘z vazifalari shakllantirildi, tadqiqot maqsadiga erishish yo‘lidagi oraliq natijalar belgilandi.

Eksperimental tadqiqot dasturini amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal qilishni nazarda tutdi: tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish algoritmini ishlab chiqish; tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni o‘z ichiga olgan, o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga tayyorgarlik sifatini oshirishning tuzilmaviy-funksional modelini amalga oshirish samaradorligini kuzatish tizimini (mezonlar, darajali ko‘rsatkichlar) asoslash; ushbu model va shart-sharoitlarni sinovdan o‘tkazish.

Tadqiqot bazasi sifatida belgilangan tajriba-sinov maydonlari (maktablar) olindi. Amaliy tayyorgarlikni tashkil etish va eksperiment jarayonida 720 nafar o‘quvchi ishtirok etdi.

Tajriba-sinov ishlari 2023-2026-o‘quv yillari davomida Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahri 3-, 27-maktablar, Sirdaryo viloyati Guliston tumani 7-, 9-, 25-maktablar, Buxoro viloyati Buxoro shahri 8-, 28-maktablarda o‘tkazildi. Bunda jami 720-nafar o‘quvchi jalb etilib, ular tajriba va nazorat sinflariga ajratildi. Shundan tajriba sinfi uchun 363-nafar, nazorat sinfi uchun esa, 357-nafar o‘quvchi tanlab olindi.

Tajriba-sinov ishlari aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakunlovchi bosqichlarda olib borildi. Tajriba-sinov ishining aniqlovchi bosqichi 2023-2024-o‘quv yilida olib borildi. Mazkur bosqichda mavzuga oid tadqiqotchi va uslubchilarning ilmiy-uslubiy adabiyotlari tahlil etildi. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash holati o‘rganildi.

Tajriba-sinov boshida ishtirok etgan o‘quvchilarning soni va natijalari baholari 6-jadvalda keltirilgan.


6-jadval

Tajriba va nazorat sinfidagi o‘quvchilarning tajriba boshidagi umumiy ko‘rsatkichlari

№	Tajriba sinfi				Nazorat sinfi			
	O‘ quvchilarning umumiy soni	Yuqori	O‘ rta	Quyi	O‘ quvchilarning umumiy soni	Yuqori	O‘ rta	Quyi
Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahri 3, 27 maktablari								
1	119	16	31	72	120	17	27	76
Sirdaryo viloyati Guliston tumani 7,9, 25 maktablari								
2	121	18	29	74	118	20	26	72
Buxoro viloyati Buxoro shahri 8, 28 maktablari								
3	123	17	27	79	119	18	23	78
	363	51	87	225	357	55	76	226

Mazkur izlanishlar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining ma’naviy-ahloqiy sifatlarini tarbiyalashga doir zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish lozim degan xulosaga kelindi. Shuningdek, mazkur bosqichda tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish va o‘quvchilarning tajriba va nazorat sinfiga ajratishda, ularning bilimlari og‘zaki, yozma va testlardan foydalanildi.

6-jadvalda tajriba guruhida tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan jami 363 nafar o‘quvchilarning 51 tasi “yuqori”, 87 tasi “o‘rta” va 225 tasi “quyi” darajalarni ko‘rsatishdi. Nazorat guruhidan 357 ta o‘quvchilarning 55 tasi “yuqori”, 76 tasi “o‘rta” va 226 tasi “quyi” baholar bilan baholandi. Bunda tajriba sinfidagi yuqori ko‘rsatkichlar 14% ni, nazorat sinfida esa, 15,4% ni tashkil etdi. Tajriba sinfidagi o‘rtacha ko‘rsatkich 24% ni, nazorat sinfida 21,3% ni tashkil etdi. Tajriba sinfida quyi ko‘rsatkich 62% ni, nazorat sinfida esa, 63,3% ni tashkil qildi. Mazkur natijalarning o‘zlashtirish dinamikasini hosil qilamiz (4-rasm).



4-rasm. O‘quvchilarning tajriba boshidagi ko‘rsatkichi

Tajriba va nazorat sinfidagi o‘quvchilarning tajriba oxiridagi umumiy ko‘rsatkichlari

7-jadval

Tajriba va nazorat sinfidagi o‘quvchilarning tajriba oxiridagi natijalarni foizlarda tahlili

№	Tajriba sinfi				Nazorat sinfi			
T/r	O‘quvchilarning umumiy soni	Yuqori	O‘rta	Quyi	O‘quvchilarning umumiy soni	Yuqori	O‘rta	Quyi
Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahri 3, 27 maktablari								
1	119	23	63	33	120	18	26	76
%		19,3	53	27,7		15	21,7	63,3
Sirdaryo viloyati Guliston tumani 7, 9, 25 maktablari								
2	121	21	66	34	118	19	29	70
%		17,4	54,5	28,1		16,1	24,6	59,3
Buxoro viloyati Buxoro shahri 8, 28 maktablari								
3	123	24	62	37	119	17	23	79
%		19,5	50,4	30,1		14,3	19,3	66,4
Jami	363	68	191	104	357	54	78	225
%		18,7	52,6	28,7		15,1	21,9	63

Jadvalda keltirilgan tahlillar asosida o‘quvchilarning tajriba va nazorat

sinfidagi umumiy natijalarini foizlarda tahlil qilamiz (8-jadvalga qarang).

8-jadval

O‘quvchi-yoshlarning natijalarini foizlarda tahlili

O‘zlashtirish darajasi	Tajriba sinfi				Nazorat sinfi			
	Tajriba boshida 363 nafar		Tajriba oxirida 363 nafar		Tajriba boshida 357 nafar		Tajriba oxirida 357 nafar	
	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
Yuqori	51	14	68	18,7	55	15,4	54	15,1
O‘rta	87	24	191	52,6	76	21,3	78	21,9
quyi	225	62	104	28,7	226	63,3	225	63

8-jadvaldagi qiymatlar asosida aytish mumkinki, tajriba sinfining tajriba oxiridagi ko‘rsatkichi tajriba boshidagiga nisbatan o‘sganini ko‘rish mumkin. Nazorat sinfidagi natijalar bo‘yicha tajriba boshi va oxiridagi ko‘rsatkich o‘zgarmagan.


Rasmda keltirilgan natijalarni foizlarda tahlilini keltiramiz. Olingan sonli natijalardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, o‘qitish samaradorligining baholash mezoni birdan va bilish darajasining baholash mezoni noldan katta ekan. Bundan ma’lumki, tajriba sinfini ko‘rsatkichlari nazorat sinfini ko‘rsatkichlaridan yuqori ekan.

Yuqorida keltirilgan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini foizlarda hisoblaymiz:

$$\frac{\overline{X}}{3}\cdot 100\% - \frac{\overline{Y}}{3}\cdot 100\% = \frac{3{,}9008}{3}\cdot 100 - \frac{3{,}5210}{3}\cdot 100 = \frac{37{,}98}{3} = 12{,}66\,\%$$

Ushbu hisoblashlardan tajriba guruhi ko‘rsatkichi, nazorat guruhinikiga nisbatan 12,66% ga oshganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, har bir ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tahlil etildi.

Ushbu tanlanmalardagi o‘zlashtirish dinamikasini hosil qilamiz:



5-rasm. O‘quvchilarning o‘zlashtirish dinamikasi

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

1. Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahri 3, 27 maktab o‘quvchilarining tajriba sinfi ko‘rsatkichi, nazorat sinfinikiga nisbatan 13,3% ga oshgan.

2. Sirdaryo viloyati Guliston tumani 7, 9, 25 maktabi o‘quvchilarining tajriba sinfi ko‘rsatkichi, nazorat sinfinikiga nisbatan 10,8% ga oshgan.

3. Buxoro viloyati Buxoro shahri 8, 28 maktab o‘quvchilarining tajriba sinfi ko‘rsatkichi, nazorat sinfinikiga nisbatan 13,8% ga oshgan.

Mazkur tahlillar asosida aytish mumkinki, Buxoro viloyati Buxoro shahri 8, 28 maktab o‘quvchilarini va Farg‘on viloyati, Qo‘qon shahri 3, 27 maktab o‘quvchilarining natijalari Sirdaryo viloyati, Guliston tumani 7, 9, 25 maktabi o‘quvchilarining natijalaridan yuqori ekan. Shunday qilib, tadqiqot doirasida ilgari surilgan g‘oya samarali ekanligi aniqlandi. Shuning uchun tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan nazariyani o‘quvchilarning ma’naviy-ahloqiy sifatlarini tarbiyalashda foydalanish lozim.

XULOSA

“Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash tizimini takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy-metodologik tahlillar va tajriba-sinov ishlari quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Aksiologik yondashuvning konseptual zarurligi asoslandi: zamonaviy globallashuv, raqamli transformatsiya va “ommaviy madaniyat” tahdidlari sharoitida an’anaviy (bilimga yo‘naltirilgan) tarbiya paradigmasi o‘z samaradorligini yo‘qotayotgani aniqlandi. Tarbiya jarayonini “tashqi majburlov”dan “ichki qadriyatli yo‘nalish”ga (interiorizatsiya) o‘tkazishning eng maqbul yo‘li – aksiologik yondashuv ekanligi ilmiy jihatdan dalillandi. Bu yondashuv O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida belgilangan “Uchinchi Renessans” poydevorini yaratish g‘oyasi bilan to‘liq uyg‘undir.

2. Tarbiya mazmuni va tuzilmasi takomillashtirildi: tadqiqot natijasida ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmuni 6 ta tayanch modul (“Men – shaxs”, “Men – oila”, “Men – fuqaro”, “Men – Vatan”, “Men – mehnat”, “Men – raqamli dunyo”) asosida tizimlashtirildi. Mazmunning o‘quvchi yoshiga qarab spiralsimon rivojlanish tamoyili ishlab chiqildi. Bu esa, tarbiyani mavhum nasihatlardan aniq hayotiy kompetensiyalarga aylantirish imkonini berdi.

3. Pedagogik shart-sharoitlar va muhit omili aniqlashtirildi: samarali tarbiya uchun faqat dars o‘tish etarli emasligi, balki maktabda maxsus “Aksiologik muhit” (ijtimoiy tenglik, psixologik xavfsizlik, “Yashirin o‘quv dasturi”ni boshqarish) yaratilishi zarurligi isbotlandi. Shuningdek, pedagog faoliyati “nazoratchi”dan “fasilitator” (yo‘naltiruvchi) pozitsiyasiga o‘zgarishi va “Oila-maktab-mahalla” hamkorligi nazorat uchun emas, balki “qadriyatlar birligi” uchun xizmat qilishi lozimligi asoslandi.

4. Innovatsion mexanizmlar va texnologiyalar tizimi yaratildi: qadriyatlarni o‘zlashtirishning refleksiv modeli ishlab chiqilib, unga ko‘ra tarbiya jarayoni

“Introduksiya – Taqdimot – Dialog/Refleksiya – Proeksiya (Amal)” algoritmi asosida qurildi. Interfaol (debat, keys-stadi), loyihaviy (Service Learning) va raqamli (mediasavodxonlik) texnologiyalarning integratsiyasi o‘quvchilarda nafaqat axloqiy bilim, balki barqaror axloqiy immunitetni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

5. Pedagogik fasilitatsiya va klaster hamkorligining ustuvorligi belgilandi: Aksiologik yondashuv sharoitida pedagogning funksiyasi “axborot uzatuvchi”dan “qadriyatlar fasilitatori” (yo‘naltiruvchi)ga o‘zgarishi lozimligi asoslandi. Shuningdek, tarbiya tizimining barqarorligini ta’minlash uchun “Oila-maktab-mahalla” hamkorligini institutsional klaster sifatida tashkil etish va unda raqamli muhit (digital citizenship) omilini inobatga olish zarurati ilmiy xulosa sifatida qayd etildi.

6. Pedagogik shart-sharoitlarning majmuaviy tasnifi yaratildi. Aksiologik tarbiya tizimining samaradorligini ta’minlovchi ijtimoiy-pedagogik muhit uch darajali tuzilmada aniqlashtirildi: makro-muhit: normativ-huquqiy baza (“Tarbiya” fani konsepsiyasi, PQ-5040) va “Oila-maktab-mahalla” hamkorlik klasterining “yagona qadriyatlar makoni” sifatida ishlashi; mezo-muhit: ta’lim muassasasida “Yashirin o‘quv dasturi” (Hidden Curriculum) fenomenini boshqarish orqali psixologik xavfsiz, adolatli va motivatsion “aksiologik muhit” yaratish; mikro-muhit: pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi avtoritar munosabatlarni subyekt-subyektli (hamkorlik) munosabatlarga aylantirish, pedagogning fasilitatorlik funksiyasini kuchaytirish.

7. Natijalarni baholash mezonlari va diagnostikasi ishlab chiqildi: tajriba-sinov ishlari davomida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlashning uch bosqichli mezoni (motivatsion-axborotli, kasbiy-mental, refleksiv-ijodiy) amaliyotga tatbiq etildi. Dastlabki diagnostika natijalari (o‘quvchilarning 67% da quyi daraja) muammoning dolzarbligini ko‘rsatgan bo‘lsa, taklif etilgan metodika asosida o‘tkazilgan tajribalar ijobiy dinamikaga erishish mumkinligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari va xulosalaridan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagilar **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Amaliyotga joriy etish: tadqiqotda ishlab chiqilgan “Aksiologik tarbiyaning refleksiv modeli” va modulli dasturlarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining “Tarbiya” fani va sinfdan tashqari ishlar jarayoniga keng joriy etish.

2. Fanlararo integratsiya: maktablardagi barcha o‘quv fanlari (aniq, tabiiy, gumanitar) mazmuniga “Aksiologik konvergensiya” tamoyili asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga qo‘llash (masalan, matematikada halollik, biologiyada hayotga ehtirom).

3. Pedagoglar malakasini oshirish: pedagogik oliy ta’lim muassasalari va malaka oshirish markazlarida o‘qituvchilar uchun “Pedagogik aksiologiya”, “Konfliktologiya” va “Fasilitatsiya texnologiyalari” bo‘yicha maxsus kurslar yoki modullarni joriy etish. O‘qituvchilarni nafaqat fan bilimdoni, balki “qadriyat tashuvchisi” sifatida tayyorlashga urg‘u berish.

4. Raqamli tarbiya: maktablarda “Raqamli fuqarolik va media-etika” bo‘yicha maxsus to‘garaklar yoki loyihalarni tashkil etish. O‘quvchilarda internetdagi axborot xurujlariga qarshi immunitet va kibermakonda mas’uliyatli xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish.

5. Baholash tizimini takomillashtirish: tarbiya natijalarini baholashda formal yondashuvdan voz kechib, o‘quvchining ijtimoiy faolligi, loyihalardagi ishtiroki va o‘zini-o‘zi tahlil qilish (refleksiya) qobiliyatini baholovchi “Portfolio” va “Refleksiv kundalik” tizimini joriy qilish.

6. Ijtimoiy hamkorlik: “Oila-maktab-mahalla” hamkorligini mustahkamlash uchun ota-onalarning pedagogik-psixologik savodxonligini oshirishga qaratilgan “Ota-onalar universiteti” faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yish va unda aksiologik mazmundan foydalanish.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ DSc.01/2025.27.12.Ped.02.01 ПРИ НАЦИОНАЛНОМ ИНСТИТУТЕ ПЕДАГОГИКИ ВОСПИТАНИЯ ИМЕНИ КАРЫ НИЯЗИ

НАЦИОНАЛНЫЙ ИНСТИТУТ ПЕДАГОГИКИ ВОСПИТАНИЯ ИМЕНИ КАРЫ НИЯЗИ

ФАЗИЛОВ ДЖАМОЛИДДИН КАМОЛИТДИНОВИЧ

СИСТЕМА ВОСПИТАНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора педагогических наук (DSc)

Ташкент – 2026

Тема докторской (DSc) диссертации зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2023.2.DSc/Ped214.

Диссертация выполнена в Националном институте педагогики воспитания имени Кары Ниязи.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (https://uzpfiti.uz), а также в Информационно-образовательном портале “Ziyonet” (www.ziyonet.uz).

Научный консультант: **Джураев Рисбай Хайдарович**
доктор педагогических наук, академик

Официалные оппоненты: **Хусанова Сумбул Исламовна**
доктор педагогических наук, профессор

Шермуҳаммедова Жамила Тошпўлатовна
доктор философских наук, профессор

Ибрагимов Аъламжон Амриллоевич
доктор педагогических наук, профессор

Ведущая организация: **Джизакский государственний педагогический университет**

Защита диссертации состоится “____” _____ 2026 года в _____ часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней DSc.01/2025.27.12.Ped.02.01 при Национальном институте педагогики воспитания имени Кары Ниязи (Адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Зиё, дом 6. Тел.: (+99871) 254-63-21; факс: (+99871) 254-63-21; e-mail: uzpfiti@exat.uz).

С диссертацией можно ознакомится в Информацонно-ресурсном центре Националного института педагогики воспитания имени Кары Ниязи (зарегистрирована за №_____). (Адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Зиё, дом 6. Телф.: (+99871) 254-63-21; факс: (+99871) 254-63-21; e-mail: uzpfiti@exat.uz).

Автореферат диссертации разослан “____” _____ 2026 года.
(протокол реестра за №_____ от “____” _____ 2026 года).

М.Куронов
Председател Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.п.н., профессор

Б.М.Хакимова
Ученый секретар Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.п.н. (PhD)

Ш.К.Мардонов
Председател Научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней,
д.п.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотатция диссертации доктора наук (DSc))

Актуалность и востребованность темы диссертации. В мире расширяется масштаб научных исследований, направленных на организацию образовательного и воспитательного процесса на основе аксиологического подхода, развитие ценностных отношений у подрастающего поколения и обеспечение духовно-нравственного становления личности. В условиях глобализции, цифровизации и усиления информационного воздействия особую значимость приобретает формирование у учащихся устойчивой системы ценностей, позволяющей самостоятельно определять нравственные ориентиры и принимать обоснованные решения в различных жизненных ситуациях. В современной педагогике ценности рассматриваются не только как содержание воспитания, но и как важнейший фактор, определяющий мировоззрение, духовные потребности, социальные отношения и поведение личности. В связи с этим возрастает необходимость интеграции общечеловеческих и национальных ценностей в содержание образования, превращения их в личностные убеждения и потребности учащихся, а также формирования способности осуществлять ценностный выбор и проявлять ответственное поведение.

В мировом масштабе проводятся международные исследования, направленные на изучение культурных, духовных и социальных ценностей молодёжи, её гражданского сознания, социальной ответственности и готовности к активному участию в общественной жизни. В рамках исследований World Values Survey изучаются ценностные ориентации, мировоззренческие установки и социальные отношения представителей различных обществ, а исследования International Civic and Citizenship Education Study (ICCS) направлены на оценку гражданских знаний учащихся, их отношения к демократическим ценностям, социальной ответственности и общественной активности. Результаты и методологические подходы подобных исследований актуализируют необходимость перехода от простого усвоения учащимися знаний о ценностях к их личностному осмыслению, интериоризatsii и проявлению в реальном поведении. В педагогической практике особую актуальность приобретает разработка технологий, обеспечивающих последовательный переход от осознания сущности ценностей к формированию ценностного отношения, нравственному выбору и практическому поведению.

В нашей стране в условиях построения Нового Узбекистана и создания фундамента Третьего Ренессанса особое внимание уделяется воспитанию молодёжи как духовно зрелых, самостоятельно мыслящих, социально ответственных личностей, преданных hatsиональным и общечеловеческим ценностям. В системе общего среднего образования усиливается необходимость интегratsii hatsиональных ценностей, традиций и духовного наследия в содержание воспитания, формирования у учащихся нравственных качеств и активной гражданской позиции. Вместе с тем

актуальной педагогической задачей остаётся обеспечение перехода от теоретического усвоения ценностей к их превращению во внутренние убеждения и устойчивые нормы повседневного поведения учащихся. Это обусловливает необходимость совершенствования форм, методов и средств интериоризatsii ценностей, создания педагогической системы, направленной на осознанный выбор, практическое применение и проявление учащимися национальных и общечеловеческих ценностей в различных социальных ситуациях.

Данное диссертатционное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Конституции Республики Узбекистан[17], Законе Республики Узбекистан ЗРУ-637 «Об образовании»[18], Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года[19], Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-5040 «О мерах по коренному совершенствованию системы духовно-просветителской работы»[20] от 26 марта 2021 года, № ПП-232 «О создании Hatsionalnого института воспитателной педагогики имени Кары Ниязи» от 21 июня 2024 года, Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 34 «Об утверждении программы повышения эффективности воспитания молодежи в системе непрерывного образования в духе верности националным ценностям и патриотизма» от 28 января 2026 года, «Об утверждении Концепции непрерывного духовного воспитания» и «О поэтапном внедрении в практику предмета «Воспитание» в общих средних школах» и других нормативно-правовых актах, касающихся данной деятелности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертционное исследование выполнено в рамках приоритетного направления I развития науки и технологий республики «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

